

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari**



Z. Ziyayev

2024-y. “28” iyun

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “ELEKTRON DO‘KON” BO‘LIMIDA ELEKTRON STATISTIK NASHRLARNI SOTIB OLISH INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “Elektron do‘kon” bo‘limida elektron statistik nashrlarni sotib olish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha elektron statistik nashrlar.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-sayti, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlari.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-saytiga, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlariga murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik nashrlari ro'yxati:

- O'zbekiston raqamlarda;
- O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;
- O'zbekiston sanoati;
- O'zbekistonda transport va aloqa;
- O'zbekiston qishloq xo'jaligi;
- O'zbekistonda qurilish;
- O'zbekistonda savdo;
- O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami;
- O'zbekiston demografik yillik to'plami;
- O'zbekistonda mehnat va bandlik;
- O'zbekistonda kichik tadbirkorlik;
- Ayollar va erkaklar;
- O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari;
- O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat;
- O'zbekistonda narxlar;
- O'zbekistonda ta'lim;
- O'zbekistonda sog'liqni saqlash;
- Yillik statistik to'plam;
- O'zbekistonda turizm

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektron statistik nashrlar Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining "Elektron do'kon" bo'limida e'lon qilib boriladi.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-81-71.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-81-37.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda info@stat.uz elektron pochtasiga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni oddiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi nashrlar namunalari.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga murojaat;
Ish tartibi: onlayn rejimda.

3.2. Kutish shartlari

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat pullik amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektron statistik nashrlariga buyurtma berish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Saytning quyi qismidagi "Elektron do'kon" bo'limini tanlash kerak. Bo'limdagi "Elektron nashrlar" bo'limi orqali qiziqtirgan statistika nashrining muddati va turi tanlanadi. Tanlangan nashr bo'yicha to'lov amalga oshiriladi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng foydalanvchi shaxsiy kabinet orqali nashrning Pdf shaklda yuklab oladi.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Yil yakunlari bo'yicha statistika sohalari kesimida ma'lumotlarni tashkil etish;
2. Statistika dasturida belgilangan muddatlarda nashrlarni tayyorlash;
3. O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektron statistik nashrlar Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilish.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, oʻrnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3. Elektron statistik nashrlarni sotib olish bo'yicha
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektron shaklidagi statistik nashrlar to'g'risidagi ma'lumotlarni agentlik saytiga, belgilangan muddatlarda, joylshtirib boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "Elektron do'kon" bo'limida "Elektron nashrlar" bo'limidan qiziqtirayotgan statistik nashrni tanlaydi va belgilangan tartibtibda to'lovni amalga oshiradi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	To'lov amalga oshirilgandan so'ng, shaxsiy kabinet orqali tanlangan statistik nashrning Pdf shaklini yuklab oladi.	Real vaqt rejimida